

“TASDIQLANGAN”  
“Madad Invest Bank”  
aksiyadorlik tijorat banki  
aksiyadorlar umumiy  
yig‘ilishining 2024 yil 15 apreldagi  
17-sonli bayonnomasiga 8-ilova



Kuzatuv kengashi raisi:

Sh.R. Xadjizadaev

**“MADAD INVEST BANK” AKSIYADORLIK TIJORAT  
BANKI BOSHQARUVI TO‘G‘RISIDA  
NIZOM**

## MUNDARIJA

.....	1
<b>1-bob. Umumiy qoidalar .....</b>	<b>3</b>
<b>2-bob. Bankning boshqaruvini tuzish va uning vakolatlarini tugatish tartibi .....</b>	<b>3</b>
<b>3-bob. Bank boshqaruvining asosiy vazifalari, vakolatlari (huquqlari) va majburiyatlari .....</b>	<b>4</b>
<b>4-bob. Bank boshqaruvi a'zosining huquq va majburiyatlari .....</b>	<b>7</b>
<b>5-bob. Bank boshqaruvi raisining vakolatlari va majburiyatlari.....</b>	<b>8</b>
<b>6-bob. Bank boshqaruvining majlisi.....</b>	<b>9</b>
<b>7-bob. Bank boshqaruvi raisi va a'zolarining javobgarligi .....</b>	<b>12</b>
<b>8-bob. Yakuniy qoidalar .....</b>	<b>12</b>

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari, boshqa amaldagi qonun hujjatlari va "mybank" "Madad Invest Bank" aksiyadorlik tijorat bankining (bundan buyon matnda bank deb yuritiladi) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Nizom bank Boshqaruving maqomini, uning raisi va a'zolarini saylash (tayinlash) tartibini, ularning vakolatlari, majburiyatlarini belgilaydi hamda faoliyatini tartibga soladi.

3. Bank Boshqaruvi banknining ijro etuvchi organi bo'lib, Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bank faoliyati uchun javobgarlikni to'liq zimmasiga oladi. Bank Boshqaruvi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga va bank Kuzatuv kengashiga hisobdordir va ularning qarorlarining ijrosini tashkil etadi.

4. Bank Boshqaruvi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" Qonunlari, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlari, bank Ustavi, bank ichki hujjatlari va mazkur Nizomga amal qiladi.

## 2-bob. Bank boshqaruvini tuzish va uning vakolatlarini tugatish tartibi

5. Bank Boshqaruvi tarkibi 5 (besh) a'zodan, Boshqaruv raisi va uning a'zolaridan iborat bo'lib, Boshqaruv tarkibiga Boshqaruv raisi, uning o'rindbosarlari, bosh buxgalter, yuridik xizmati rahbari hamda Kuzatuv kengashi qaroriga asosan bankning boshqa asosiy bo'linmalar rahbarlari kiritiladi.

6. Boshqaruv raisi va a'zolari bank faoliyatini boshqarish va bank xodimlari ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bilim, malaka, yaxshi xulq-atvor va benuqson ishchanlik obro'siga ega bo'lishi talab etiladi.

7. Boshqaruv a'zoligiga nomzodlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan mezonlarga, malaka talablariga mos kelishi kerak.

8. Boshqaruv raisi va boshqa a'zolari Markaziy bankning kelishish qaroriga ko'ra bank kuzatuv kengashi tomonidan uch yil muddatga tayinlanadi.

9. Boshqaruv raisi va a'zolarini saylash (tayinlash), Kuzatuv kengashi qarori asosida, chet elliq menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida amalga oshirilishi mumkin.

10. Boshqaruv raisi va a'zolari bilan bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bank nomidan Kuzatuv kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergen shaxs imzolaydi.

11. Boshqaruv a'zoligiga tayinlangan bankning boshqa asosiy bo'linmalarini rahbarlari bilan Boshqaruv a'zoligiga yollash haqida tuzilgan shartnomalarni Boshqaruv raisi imzolaydi.

12. Boshqaruv raisi va a'zolari bilan mehnat shartnomasi uch yil muddatga tuziladi.

Boshqaruv raisi va a'zolariga to'lanadigan haq miqdori shartnomada aks ettiriladi.

13. Boshqaruv raisi va a'zolarining vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga yo'l qo'yilmaydi.

14. Kuzatuv kengashi Boshqaruv raisi va a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar ular shartnoma shartlarini, bank Ustavini qo'pol tarzda buzsa yoki ularning xarakatlari (xarakatsizligi) tufayli bankga zarar yetkazilgan deb xisoblagan xollarda shartnoma muddatidan ilgari tugatiladi.

15. Boshqaruv raisining vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan Kuzatuv kengashi uning vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

16. Boshqaruv raisi Boshqaruv tarkibidagi vaqtincha bo'sh bo'lgan lavozimga, Kuzatuv kengashining kelgusi majlisigacha bo'lgan muddatda, vazifasini bajaruvchini tayinlaydi.

17. Boshqaruv raisi mazkur Nizomga muvofiq bank faoliyatidagi o'zgarishlar va boshqa holatlar munosabati bilan bank Boshqaruvining tarkibiga qo'shimcha nomzodlar bo'yicha takliflar kiritishi mumkin.

### **3-bob. Boshqaruvning asosiy vazifalari, vakolatlari (huquqlari) va majburiyatları**

18. Bank Boshqaruvi Boshqaruvning vakolatlari va vazifalarini yaxshi biluvchi, funksional vazifalarini bajarishda yuqori darajadagi ishbilarmonlik va odob-ahloq qoidalariga rioya etuvchi malakali a'zolardan iborat bo'ladi.

19. Quyidagilar Boshqaruvning asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi:

zamonaviy ilg'or korporativ boshqaruv tamoyillari, usullarini ishlab chiqilishini taminlash, bank faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

bank aksiyadorlari, kuzatuv kengashi va kreditorlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;

bankning strategik maqsadlari, biznes-rejasi va korporativ boshqaruvga oid siyosatlari loyihalarini ishlab chiqilishini tashkil etish va ularda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, hamda ularni takomillashtirish yuzasidan muntazam takliflar ishlab chiqilishi va bank Kuzatuv kengashiga kiritilishini ta'minlash;

bank tashkiliy tuzilmasining barcha darajalarida tartib va lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqilishini, ularga rioya etishi yuzasidan samarali monitoring tizimini o'rnatishni va davriy ravishda ushbu tizimlar takomillashtirilib borilishini ta'minlash;

barcha muhim axborotlarning tegishli tarzda tayyorlanishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlovchi ishonchli axborot tizimlarini o'rnatishi;

biznes-reja ko'rsatkichlari va bank strategiyasi bajarilishini baholash imkonini beruvchi, o'z ichida moliyaviy va boshqa faoliyatning amaldagi natijalarini aks ettirgan hisobotlarning o'z vaqtida Kuzatuv kengashiga taqdim etilishini ta'minlash;

bankning moliyaviy ahvoli yomonlashuvi yoki bunday holat yuz berish xavfi hamda biznes-reja, strategik maqsadlar, tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasi va risk-appetitdagi o'zgarishlar, tavakkalchilik chegaralari (limiti) va prudensial talablar buzilishi, ichki nazoratdagи xatoliklar, huquqiy yoki tartibga solish bilan bog'liq muammolar yuzasidan kechiktirilmagan tarzda Kuzatuv kengashga xabar berish;

bankni boshqarishning tegishli va ochiq tashkiliy tuzilmasiga ko'ra o'z vakolatlari doirasida bank xodimlari o'rtasida vakolatlar va majburiyatlar taqsimlanishini ta'minlash;

bank xodimlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

xodimlarni, jumladan, boshqaruv a'zolari, muhim ahamiyatga ega xodimlarni ishga qabul qilish va bo'shatish, ularning o'zgartirilishi (rotatsiyasi), lavozim bo'yicha ko'tarilish, malakasini oshirish, shuningdek, xodimlar o'z majburiyatlari, odob-ahloq qoidalarini buzgan hollarda ularga nisbatan choralar ko'rish.

20. Boshqaruvning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi va Kuzatuv kengashida muhokama etiladigan barcha masalalarni oldindan ko'rib chiqib, bayonnomaga shaklida rasmiylashtiradi va ular yuzasidan bank Kuzatuv kengashining tegishli hujjatlari va qaror loyihibarini tayyorlaydi.

Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari ijrosini tashkil etadi va ta'minlaydi;

depozitlarni qabul qilish, aktivlarni joylashtirish, kreditlashni tashkil etish, hisob-kitoblar, pul muomalasi, kassa xizmati, tashqi iqtisodiy faoliyat va bank faoliyatiga oid boshqa amaliyotlarni tashkil etish masalalarini ko'rib chiqadi;

har chorakda Kuzatuv kengashiga Bankning moliyaviy holati, biznes va moliyaviy reja ijrosi haqida hisobot taqdim etadi;

bank xizmatlarining yangi turlarini ishlab chiqadi va joriy etadi;

hisob-kitob xizmatlari ko'rsatish, kredit, pul va to'lov hujjatlari va xat-hujjatlarni rasmiylashtirishning umumiyligi shartlari va tartibini qonunchilikda belgilangan tartibda belgilaydi;

kredit, investitsiya, dividend, emissiya va kadrlar siyosatlarini, shuningdek qonunchilik bilan o'rnatilgan boshqa siyosatlari va Bankning rivojlantirish strategiyasini, Biznes rejasini ishlab chiqadi hamda ularni Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritadi. Bankning kredit va boshqa siyosatlari, bankni rivojlantirish strategiyasini, Biznes-rejasi ijrosini ta'minlaydi;

kredit siyosati va kredit operatsiyalarini o'tkazishning umumiyligi shartlariga muvofiq kredit berishni amalga oshiradi, kredit hujjatlarini yuritish tartibiga rioya etilishini ta'minlaydi;

ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlaydi, Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan hujjatlar bundan mustasno;

Bosh Bankning tarkibiy bo'linmalari (departament, mustaqil boshqarma, Bank xizmatlari markazlari) nizomlarini tasdiqlaydi;

audit tekshiruvlari, taftish hujjatlari, shuningdek Bankning tarkibiy bo'linmalari, filial, vakolatxonalarini va bank xizmatlari ofislari rahbarlarining hisobotlarini ko'rib chiqadi va ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

Bankning amaldagi qonunchilikka rioya qilishini ta'minlaydi;

qonunchilikka va xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobining yuritilishini va moliyaviy hisobotlar taqdim etilishini, shuningdek hujjatlar aylanishini va hujjatlar saqlanishinini tashkil etadi;

xodimlar, jumladan muhim ahamiyatga ega xodimlarni ishga qabul qilish va bo'shatish, ularning o'zgartirilishi (rotatsiyasi), lavozim bo'yicha ko'tarilishi, malakasini oshirish, malakali xodimlarni saqlab qolish shuningdek xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tayyorlash masalalarini hal qiladi. Xodimlar va mansabdor shaxslar o'z majburiyatlari, Odob-ahloq qoidalarini buzganda ularga nisbatan vakolatiga ko'ra intizomiyl jazo choralarini ko'radi;

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va

tavakkalchiliklar to‘g‘risida xabardor etish, kapitalning yetarliligin lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshiradi;

risk-appetit bayonoti, Tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati va Bankning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining samarali faoliyat yuritishini ta‘minlaydi, xususan Bankdagi tavakkalchiliklar holati, Bank faoliyatidagi sezilarli o‘zgarishlar va yangi mahsulotlari haqida ma’lumotlarni aks ettiruvchi hisobotlar tayyorlaydi va Kuzatuv kengashiga har chorakda taqdim etib boradi;

amaldagi qonunchilik, Bank Ustavi va boshqa ichki me’yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi, shuningdek Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi tomonidan topshirilgan boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi va hal qiladi;

Boshqaruv raisi va a’zolari qonunchilik, mazkur Ustav va Bankning boshqa ichki me’yoriy hujjatlariga binoan Bank va aksiyadorlar oldida javobgar bo‘lib hisoblanadilar. Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan Boshqaruv qaroriga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergen Boshqaruv a’zolari javobgar bo‘lmaydi;

korporativ boshqaruvning zamonaviy va ilg‘or uslublarini joriy etadi, O‘zbekiston Respublikasining Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini tatbiq etilishini tashkil qiladi;

Bank faoliyatini samaradorligini ta‘minlash maqsadida bank xizmatlari markazlari va bank xizmatlari ofislarini tashkil qiladi, ochadi va faoliyatini to‘xtatadi hamda ularning nizomlarini tasdiqlaydi;

Bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni Bank xodimlari o‘rtasida o‘z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta‘minlaydi.

21. Boshqaruvning vakolatlari va majburiyatlari doirasi, vakolatlarining hajmi va miqdori Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan bankning Siyosatlarida va boshqa ichki lokal hujjatlarida belgilab qo‘yiladi.

22. Bank Boshqaruvining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

har chorakda bank Kuzatuv kengashiga bankning moliyaviy holati va faoliyati, biznes-reja ijrosi haqida hisobot taqdim etadi;

bankning samarali faoliyati, strategik rejalarining bajarilishi, uning tashabbusi bilan bank faoliyatini rivojlantirishni ko‘zda tutuvchi biznes-reja va loyihalarning samaradorligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

Bankning kundalik faoliyatiga doir masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qiladi;

kredit va boshqa siyosatlar, bankning rivojlantirish strategiyasi, biznes-reja ijrosini va joriy etilishini ta‘minlaydi;

tarkibiy bo‘linmalari va filial rahbarlarining hisobotlarini ko‘rib chiqadi va ular bo‘yicha qarorlar qabul qiladi;

bank audit xizmati va boshqa tekshiruvlar natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklar va qonun buzilishlarni doimiy ko‘rib chiqadi va ularni bartaraf qilish choralarini ko‘radi;

bank faoliyatini operativ boshqarishda amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilishini ta‘minlaydi;

korporativ boshqaruvning zamonaviy va ilg‘or uslublarini joriy etadi;

tashqi audit tekshiruvi va Markaziy bank tomonidan o‘tkazilgan inspeksiya (tekshiruv) natijalarini Boshqaruv yig‘ilishida ko‘rib chiqib, tegishli choralar ko‘radi;

audit tekshiruvi va Markaziy bank tomonidan o'tkazilgan inspeksiya (tekshiruv) larida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda qilingan ishlarni natijalarini ko'rib chiqish uchun bank kuzatuv kengashiga kiritish;

bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasi doirasida vakolatlarni va javobgarlikni bank xodimlari o'rtasida o'z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta'minlaydi;

Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi, Kuzatuv Kengashi va Boshqaruv qarorlari, unga tegishli hujjatlari yig'ma jild sifatida bankda saqlanadi va ular yuritishiga, saqlanishiga javobgar xisoblanadi. Hujjatlari bo'yicha ish yuritish, (ro'yxatga olish) tegishli bo'linma tomonidan amalga oshiriladi;

qonunchilik hujjatlari, bank ustavi hamda bank aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishi hamda Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan strategiya va siyosatlarni amalga oshirishga doir qarorlarga rioya etgan holda majburiyatlarini o'z vakolatlari doirasida bajaradi;

o'zlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishi uchun o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritadi;

zarur va oshkora ma'lumotni belgilangan muddatlarda olish, ular bilan bog'liq tegishli chora-tadbirlarni ko'rish hamda shaxsiy malaka va tajribaga tayangan holda qarorlar qabul qilish;

manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmaslikka oid talablarga rioya etish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, mazkur Nizom va bankning Ustaviga muvofiq boshqa majburiyatlarini bajarishi shart.

#### **4-bob. Boshqaruv a'zosining huquq va majburiyatları**

22. Boshqaruv a'zosining huquq va majburiyatları qonunchilik hujjatlarida, bank Ustavida, mazkur Nizomda hamda u bilan uch yil muddatga tuziladigan shartnomada belgilanadi.

23. Boshqaruv a'zosi o'z vazifalarini professional asosda amalga oshirishi, qonunchilik hujjatlari, bank Ustavi va yuqori boshqaruv organlari qarorlaridan kelib chiquvchi barcha maburiyatlarni vijdanan va oqilona bajarishi, huquq va majburiyatlarini bajarishda bank va uning aksiyadorlari manfaatlari yo'lida ish yuritishi lozim.

24. Boshqaruv a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

Boshqaruv majlisi kun tartibi bo'yicha takliflar kiritish, ma'lumotlar taqdim etish, Boshqaruvning ish rejasi va kun tartibini shakllantirish yuzasidan takliflar berish, Boshqaruv majlisining chaqirilishini talab qilish;

Boshqaruv majlisida shaxsan ishtirok etish, muhokama etilayotgan masala bo'yicha o'z fikrlarini bildirish;

bank korporativ hujjatlari, ichki me'yoriy hujjatlarni olish, ular bilan tanishish va bank faoliyati to'g'risida to'liq axborotlar olish;

Boshqaruv qarorlari yuzasidan o'z fikrlarini bildirish, Boshqaruv qarorlari yuzasidan o'z noroziliklarini yozma ravishda bildirish va uni bank Kuzatuv kengashiga taqdim etish.

25. Boshqaruv a'zosi bank manfaatlari yo'lida vijdanan va oqilona xarakat qilishga majbur bo'lib, quyidagi majburiatlarga rioya etishlari lozim:

qonun hujjatlari, bank Ustavi hamda bank aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishi hamda Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan strategiya va siyosatlarni amalga oshirishga doir qarorlarga rioya etish va majburiyatlarini o'z vakolati doirasida bajarish;

o‘zining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishi uchun o‘z vakolatlari doirasida faoliyat yuritish;

manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarmaslikka oid talablarga rioya etish;

boshqa tashkilotlar bilan mehnat munosabatlariga kirishganligi yoki bu xaqda ko‘rib chiqayotgan takliflar to‘grisida Kuzatuv kengashini operativ xabardor qilish;

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruvning qarorlari va topshiriqlarini ijro etish, qonun hujjatlari, bank Ustavi va boshqa ichki me’yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish;

maxfiy, shuningdek shaxsga doir ma’lumotlar, tijorat va bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni oshkor yetmaslik;

bank obro‘sni, uning rivojlanishi, moliyaviy barqarorligini oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

bank bilan bitim tuzishda bankga aloqador shaxs ekanligi to‘g‘risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma’lumotlarni, shu jumladan, bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko‘rsatgan holda yozma bildirish yuborish orqali bank Boshqaruvini xabardor etish;

jinoiy javobgarlikka tortilganligi to‘g‘risida Boshqaruvni operativ tarzda yozma xabardor qilish.

26. Boshqaruv a’zosi amaldagi qonun hujjatlarida, bank Ustavida, mazkur Nizomda va mehnat shartnomasida ko‘rsatilgan boshqa huquqlar va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

## **5-bob. Bank boshqaruvi raisining vakolatlari va majburiyatlari**

27. Bank Boshqaruvi raisi qonunchilik hujjatlarida, bank Ustavida, mazkur Nizomda belgilangan tartibda o‘z vakolatlariga muvofiq bankning kundalik faoliyatiga operativ samarali rahbarlik qiladi. Boshqaruvning majlisida raislik qiladi. Bank kuzatuv kengashi ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi.

28. Boshqaruv raisining vakolatlari va huquqlari:

bankning kundalik faoliyatiga tezkor rahbarlik qiladi;

Kuzatuv kengashi majlislariga bankning rivojlantirish strategiyasini va uni amalga oshirish usullariga doir takliflarni kiritadi;

Boshqaruv ishini tashkil etadi, Boshqaruv majlisi bayoni va qarorlarini imzolaydi;

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga va Kuzatuv kengashiga belgilangan muddatlarda Boshqaruvning samarali faoliyati to‘g‘risida hisobotlarini taqdim etadi;

bankni rivojlantirish strategiyasi va biznes-rejalarini ishlab chiqishga rahbarlik qiladi, ularning ijrosini tashkil etadi va nazorat qiladi;

bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan barcha tashkilotlarda, davlat organlarida bank manfaatlarini ko‘zlab ish tutadi;

bank nomidan bitimlar, shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalarini tuzadi va ishonchnomalar beradi;

bank filiallari, bo‘linmalarini ochish bo‘yicha tayyorgarlik ishlarini tashkillashtiradi;

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadigan hujatlardan tashqari bank ichki hujjatlarini tasdiqlaydi,

Shtatlar jadvalini tasdiqlaydi;

bankning tuzilmaviy bo‘linmalar rahbarlarini (Kuzatuv kengashi tomonidan tashkil etilgan Qo‘mitalar rahbarini tayinlash bundan mustasno), shu jumladan filiallar va vakolatxonalar rahbarlarini va bosh buxgalterlarini tayinlaydi, ular bilan tuziladigan mehnat shartnomalarini bank nomidan imzolaydi;

O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga muvofiq xodimlarni rag‘batlantiradi, ularga nisbatan intizomiy jazolarni qo‘llaydi, shuningdek intizomiy jazolarni olib tashlaydi;

Boshqaruv raisi o‘rinbosarlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

bank xodimlarining lavozim yo‘riqnomalarini tasdiqlaydi;

bankning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar, farmoyishlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi;

bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan barcha ichki meyoriy hujjatlarni imzolaydi;

amaldagi qonunchilik hujjatlariga, bank Ustavi hamda bank ichki hujjatlariga muvofiq va o‘z vakolati doirasida bankning mol-mulki va pul mablag‘larini boshqaradi;

boshqa banklarda bankning vakillik, valyuta hisob-varaqlari va boshqa hisob-varaqlarini ochadi va yuritilishini ta‘minlaydi;

Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan bankning Siyosatlarida va boshqa ichki lokal hujjatlarida belgilab qo‘yilgan Boshqaruvning vakolatlari, limitlari (bir shaxs, yeki ungan alokador bulgan shaxslar bilan bitim limitlari, xaridlar kilish limitlari) doirasida ish yuritilishini nazorat qiladi va javobgar hisoblanadi.

29. Boshqaruv raisining majburiyatlari qo‘yidagilardan iborat:

bank faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta‘minlaydi;

Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi va Kuzatuv kengashining majlislariga tayyorgarlik ko‘rishni, ularni o‘tkazishni hamda ular tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta‘minlaydi;

maxfiy, shuningdek shaxsga doir ma‘lumotlar, tijorat va bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni sir saqlanishini ta‘minlaydi.

30. Boshqaruv raisi qonunchilik hujjatlari, bank Ustavi, mazkur Nizom, bankning ichki me‘yoriy hujjatlari va u bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

31. Boshqaruv raisi o‘z joyida bo‘lmagan, uning birinchi o‘rinbosari, u ham bo‘lmagan taqdirda esa, o‘rinbosari Boshqaruv raisining buyrug‘i yoki Kuzatuv kengashining qarori bilan Boshqaruv raisi vazifasini vaqtincha bajaradi.

32. Boshqaruv raisi vazifasini vaqtincha bajarishni yuklash haqidagi Kuzatuv kengashi qarori yoki Boshqaruv raisi buyrug‘ida boshqacha holat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, Boshqaruv raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxs bank Ustavi va mazkur Nizom bilan Boshqaruv raisiga berilgan huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi.

## 6-bob. Bank boshqaruvi majlisi

33. Boshqaruv majlisi zarur hollarda, biroq kamida bir oyda bir marta o‘tkaziladi. Kuzatuv kengashiga yoki Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishiga hal qilishi uchun kiritiladigan masalalar Boshqaruv tomonidan Boshqaruv majlisida oldindan muhokama etiladi. Boshqaruvning fikri haqida Kuzatuv kengashida va Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishida Boshqaruv raisi yoki u tomonidan vakolat berilgan Boshqaruv a’zosi axborot beradi va himoya qiladi.

34. Boshqaruv majlisi a'zolarning birgalikdagi shaxsiy ishtiroki yoki sirtdan ovoz berish yo'li (so'rov o'tkazish yo'li) bilan o'tkaziladi.

35. Boshqaruv majlislarini Boshqaruv raisi, yoxud ko'rib chiqilayotgan masalalar tegishliligi bo'yicha uning o'rnbosarlaridan biri olib boradi.

36. Boshqaruv yig'ilishining kun tartibi, masalalarni ko'rib chiqish navbatni va tartibi (reglamenti) Boshqaruv raisi tomonidan belgilanadi. Boshqaruv uchun masalani kun tartibiga kiritish Boshqaruv raisining topshiriqlari, Boshqaruv a'zolari, taftish komissiyasi, tashqi auditor va ichki audit xizmati rahbari takliflari asosida amalga oshiriladi.

37. Boshqaruv majlisi kun tartibiga kiritilgan masala bo'yicha ma'lumotlar va zarur boshqa materiallar tegishliligi bo'yicha mas'ul tarkibiy tuzilma tomonidan tayyorlanadi. Majlis kun tartibiga kiritilgan masalalarga doir ma'lumotlar va materiallar Boshqaruv a'zolariga, qoidaga ko'ra, majlisgacha kamida 3 (uch) kun avval taqdim etiladi.

38. Boshqaruvning har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Boshqaruv a'zosi o'z ovozini boshqa Boshqaruv a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi. Ovozlar teng bo'lganda, Boshqaruv raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Boshqaruv majlislarida qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

39. Boshqaruv qarorlariga sirtdan ovoz berilganda (so'rov yo'li bilan) qaror qabul qilinishi uchun Boshqaruvning barcha a'zolari bir ovozdan ovoz berishi lozim.

40. Bank Boshqaruvining majlisi unda Boshqaruv a'zolarining kamida kamida 60 (oltmish) foizi ishtirok etganda vakolatli bo'ladi.

41. Bank Boshqaruvining qarori majlisda qatnashayotgan Boshqaruv a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, Boshqaruv raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Qabul qilingan qarorga rozi bo'Imagan Boshqaruv a'zosi o'z fikrini Kuzatuv kengashiga bildirish huquqiga ega.

42. Bir yil davomida Boshqaruv majlisida ko'rilgan masalalar yuzasidan Boshqaruv a'zolarining ovozlari uch va undan ortiq xolatda teng bo'lgan taqdirda mazkur qarorlar yuzasidan kuzatuv kengashiga axborot beriladi.

43. Boshqaruvning majlis bayonnomalari Boshqaruv kotibi yoki tashabbuskor boshqarma tomonidan yuritiladi, bayonnomalar Boshqaruv majlisi o'tkazilganidan so'ng o'n kun muddatda rasmiylashtiriladi va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

44. Boshqaruvning majlis bayonnomasida:

majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

majlisda ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatcyva texnologyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar;

raislik qiluvchi, majlisga ishtirok etuvchi Boshqaruv a'zolari va taklif etilganlar ro'yxati, kun tartibi, ovozga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish natijalari, qabul qilingan qarorlar ko'rsatiladi.

45. Boshqaruv majlisining bayonnomasi majlisda raislik qilgan shaxs va Boshqaruv a'zolari tomonidan imzolanadi, u bayonnomaning to'g'riliqi uchun javobgar hisoblanadi.

46. Boshqaruv majlislari bayonnomasidan ko'chirmalar quyidagilarga beriladi:

Kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi va Boshqaruv a'zolariga ularning talabiga binoan majburiy tartibda;

bankning boshqa mansabdar shaxslari va auditorning so'roviga binoan, shuningdek amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxs va organlarga faqat bank Boshqaruv raisining ruxsati bilan.

47. Boshqaruv qarorlar shaklida hujjatlar qabul qiladi.

## 7-bob. Bank boshqaruvi raisi va a'zolarining javobgarligi

48. Bank Boshqaruvi a'zosi o'zi bilan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, Boshqaruv qaror qabul qilingunga qadar o'zining manfaatdorligi to'g'risida bank boshqaruviga xabar berishga majbur va ovozga qo'yilganda qatnashmaydi.

49. Bank Boshqaruvi a'zolari bank mol-mulkini tasarruf qilishdan shaxsiy foyda ko'rish bo'yicha harakatlarga yo'l qo'yilmasligi kerak.

50. Bankni rivojlantirish strategiyasi va biznes-rejalar ko'rsatkichlari ijrosi yuzasidan javobgar bo'ladi.

51. Bank Boshqaruvi a'zolari a'zolik davrida faoliyati bank xizmatlar taqdim etishda qiyinchilik tug'diradigan jamiyatlarni ta'sis etish yoki ta'sis etishda qatnashish huquqiga ega emaslar. Bank Boshqaruvi a'zosi bankda lavozimga tayinlanganda xuddi shunday jamiyatdagi o'z ishtirokini to'xtatishi va bu to'xtatish to'g'risida bank Kuzatuv kengashini xabardor qilishi lozim.

52. Bank Boshqaruvi a'zolari amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bank Ustavida belgilangan holatlar va tartibda javobgar bo'ladilar.

## 8-bob. Yakuniy qoidalar

53. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

54. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Kuzatuv Kengashi qarorlari va ularga tegishli hujjatlar yig'ma jild sifatida bankda saqlanadi va ularning butligiga bank boshqaruvi javobgar xisoblanadi.

55. Mazkur Nizom Aksiyadorlar umumiy yigilishida tasdiqkangandan so'ng kuchga kiradi va unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

56. Mazkur nizom kuchga kirishi munosabati bilan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining 2023 yil 22 iyundagi 13- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Bank Boshqaruvi to'g'risi" dagi Nizom o'z kuchini yo'qotadi.

57. Ushbu Nizomning ayrim qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi yoki bank Ustaviga zid bo'lsa, bunday qoidalalar o'z kuchini yo'qotadi, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va bank Ustaviga rioya qilinadi.



